

INNOVATSION DORI PREPARATLARI, KOSMETIKA VA BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALARINI ISHLAB CHIQISH, ULARNING SIFATINI TA'MINLASH

Oribjonov Otabek Erkinjon o'g'li, Oribjonova Hadisa Abdumutallib qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona, O'zbekiston

Kalit so'zlar: innovatsion dori preparatlari, kosmetika, biologik faol qo'shimchalar, sifat nazorati, yangi texnologiyalar, farmakologiya

Maqsad Farmatsevtika, kosmetika va biologik faol qo'shimchalar sohasida innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqish, ularning samaradorligi va xavfsizligini baholash hamda xalqaro sifat standartlariga mos holda nazorat usullarini ilmiy jihatdan asoslab berish.

Dolzarbli Farmatsevtika va kosmetologiya sanoatida innovatsion yondashuvlar bozor talablariga mos keluvchi yangi mahsulotlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning to'g'ri ishlab chiqilishi, xavfsizligi va samaradorligi aholining salomatligini muhofaza qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Material va usullar Tadqiqotda yangi formulalar va xomashyolar asosida ishlab chiqilgan preparatlarning ishlab chiqish jarayoni, ularni farmakologik va klinik jihatdan baholash uslublari tahlil qilindi. Xalqaro ISO va GMP sifat standartlariga mosligini ta'minlashda qo'llaniladigan texnologik va nazorat-o'lchov usullar ko'rib chiqildi.

Natijalar Tahlillar shuni ko'rsatdiki, innovatsion preparatlarni ishlab chiqishda xomashyo tanlovi, texnologik jarayonning aniqligi va farmakologik baholash natijalari mahsulotning samaradorligi va xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Sifat nazorati tizimining joriy qilinishi mahsulotlarning barqarorligini va bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Xulosa Innovatsion dori vositalari, kosmetik mahsulotlar va biologik faol qo'shimchalarni ishlab chiqishda sifatni ta'minlash, xavfsizlik va samaradorlikni baholash xalqaro standartlar asosida amalga oshirilishi zarur. Bu yondashuv farmatsevtika sohasida yuqori samaradorlik va aholining ishonchini ta'minlashga xizmat qiladi.

Development and Quality Assurance of Innovative Pharmaceutical Products, Cosmetics, and Biologically Active Supplements

Oribjonov Otabek Erkinjon ogli, Oribjonova Hadisa Abdumutallib qizi

Fergana Institute of Public Health, Fergana, Uzbekistan

E-mail: otabekoribjonov033@gmail.com

Keywords: innovative pharmaceutical products, cosmetics, biologically active supplements, quality control, new technologies, pharmacology

Abstract:

Innovative approaches in the pharmaceutical and cosmetic industries play a crucial role in the development of high-quality and safe products. This study explores the formulation, efficacy, and safety of new drugs, cosmetics, and biologically active supplements, along with scientific methods for quality assurance. It emphasizes compliance with international standards such as ISO and GMP. The findings highlight the importance of raw material selection, accurate technological processes, and pharmacological evaluation in ensuring product effectiveness and market competitiveness.

QATTIQ VA YUMSHOQ TANGLAY YORIĞI VA ORA-NAZAL FISTULANI DAVOLASHGA YANGICHA YONDASHUV

Rajamatov T.R., Inoyatov A.Sh., Umarov B.Ya.

Toshkent shahar Bolalar Milliy Tibbiyot Markazi, Toshkent, O‘zbekiston

Kalit so‘zlar: tanglay yoriği, ora-nazal fistula, jarrohlik, plastika, bolalar, tug‘ma nuqsonlar, mahalliy to‘qima, oyoqchali loskut, mikrosirkulyatsiya

Dolzarbligi

Tug‘ma yuqori lab, qattiq va yumshoq tanglay yoriği hamda palatoplastika amaliyotidan keyingi ora-nazal fistulalar bolalarda murakkab tibbiy va psixologik muammolarga sabab bo‘ladi. Ular ovqatlanish, aniq talaffuz va ravon nutqni buzadi, ijtimoiy kommunikatsiyada qiyinchiliklarga olib keladi. An‘anaviy logopedik terapiyalar ko‘pincha yetarli natija bermaydi. Shu sababli, yangicha, samarali jarrohlik yondashuvlarini ishlab chiqish muhimdir. Ushbu tadqiqot innovatsion texnikalarni amaliyotga joriy etish orqali bolalarda og‘iz bo‘shlig‘i va nutq faoliyatini yaxshilashga qaratilgan.

Maqsad

Tug‘ma tanglay yoriği va ora-nazal fistulani bartaraf etishda mahalliy to‘qimalar va lunj yog‘i (buccal fat pad) asosida oyoqchali loskutlar qo‘llanilgan yangi jarrohlik yondashuvlarning samaradorligini o‘rganish.

Material va usullar

2020–2024 yillarda Toshkent shahar Bolalar Milliy Tibbiyot Markazida 67 nafar bemor bolaga zamonaviy jarrohlik amaliyotlari bajarildi. Mahalliy to‘qimalar va buccal fat pad oyoqchali loskuti orqali og‘iz bo‘shlig‘idagi ochiq nuqsonlar muvaffaqiyatli yondashuv bilan yopildi. Operatsiyadan so‘ng natijalar 2–3 oy davomida kuzatildi.

Natijalar

Operatsiyalar bemorlarda ovqatlanish va talaffuzdagi muammolarni kamaytirishga yordam berdi. Operatsiyadan so‘ng og‘iz bo‘shlig‘ida ochiq joy qolmadi, og‘riq kamroq bo‘ldi, va 2 oy ichida loskutning yog‘ to‘qimasi to‘liq shilliq qavatga aylandi.